KASBIY FAOLIYAT MUAMMOSINI PSIXOLOGIK TADQIQ ETILISHI

Naxalboyev Mehriddin Ergash o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
70310301 Psixalogiya mutaxasisligi magistranti.
naxalboyevmehriddin@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy hayotidagi ikki fundamental tushuncha – kasb mutanosibligi va kasbiy istiqbol to‘g‘risidagi tasavvurlarning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda Holland, Super va Pryajnikov kabi olimlar nazariyalariga tayangan holda, mutanosiblikning yuqori motivatsiya va ishdan qoniqishni ta’minlashi, istiqbolni rejalashtirish esa shaxsning raqobatbardoshligini oshirishi asoslangan. Tadqiqot xulosalarida mazkur jarayonlarni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, xususan, diagnostika va mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish zaruriyati ko‘rsatilgan. Maqola ta’lim psixologlari, pedagoglar va kadrlar tayyorlash sohasi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Kasb mutanosibligi, kasbiy istiqbol, karyera rejalashtirish, shaxsiy rivojlanish, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, kompetentlik, mentorlik.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.[1]

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p qatlam yoshlar qatlami ekanligini inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili bo‘lib hizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil etildi Ushbu hujjatga e’tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin. O‘z navbatida, O‘zbekistondagi barcha o‘zgarishlarning negizi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta’lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etmoqda. Davlatimiz rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo‘yilgan eng samarali sarmoya

deb hisoblab, ta’lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta’kidlaydi.

Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog‘li javob bera olishiga bog‘liq. Jamiyat taraqqiyotida ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy soha mutahasisslarini samarali faoliyat ko‘rsatishi, eng avvalo, malakali kadrlar faoliyatiga bog‘liqdir.

Shu bois, amalga oshirilayotgan islohatlar kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlarida, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurishni nazarda tutadi. Shunday ekan ushbu talablardan kelib chiqqan holda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli soha egalarini tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. ‘Yoshlar oldida turgan dolzarb masala esa kasb tanlash masalasidir.

Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o‘z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma‘lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo‘ladi. Kasb tanlash ma‘lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov subyekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov obyekti) munosabatlarini o‘zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi: Tanlov subyekti va tanlov obyekti o‘rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o‘rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi[2]. Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub‘ektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi.

Insonning shaxsiy psixologik xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib o‘z kasbini to‘g‘ri tanlashi uning kelajakda faoliyatining samaradorligi va muvaffaqiyatini

[2] S.N. Jo‘rayeva ,Z.Sh.Yunusxodjayev. Kasbiy psixologiya. O`quv qo`llanma.T.2014

ta’minlovchi omil hisoblanadi. Kasbidan qoniqish hissi o‘z kasbini sevib, qunt bilan ishlashga undaydi.Bunda inson o‘z ustida ko‘proq ishlashga, ijodiy yondashishga harakat qiladi, o‘z muvaffaqiyatlaridan ruhlanib,yangi-yangi marralarni egallashga harakat qiladi. Yangi O‘zbekiston uchun ana shunday o‘z kasbini sevib ,qunt bilan yondashadigan yuqori salohiyatga ega kadrlar zarur.Yosh avlodni kasbga yo‘naltirishda shaxs kasbiy yo‘nalganligiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillar qiziqish, layoqat, qobiliyat, motiv, qadriyatlar tizimidan kelib chiqib, kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish, oila, ta’lim muassasalaridagi pedagog va psixologlar e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan muhim jarayon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalik davri nafaqat bilim olish, balki o‘z kasbiy "Men"ini anglash, shakllantirish va uni mehnat bozoridagi mavjud talablar bilan– ushbu jarayonni ilmiy asoslangan holda boshqarish va har bir talabaning o‘z kasbiy salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishiga zamin yaratishdan iborat. Kasbiy mutanosiblik talabaning o‘z kasbiga barqaror qiziqishini va o‘qishdagi faolligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, kasbiy istiqbolga doir aniq, realistik tasavvurlar (kelajak karyerasini strategik rejalashtirish) talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishga mas’uliyatini oshiradi va uning harakatlarini maqsadga yo‘naltiradi. Xulosa shuki, Oliy ta’lim tizimining asosiy vazifasi – nafaqat mutaxassislik bo‘yicha bilim berish, balki talabaning kasbiy o‘zligini anglash, o‘z salohiyatini baholash va uni mehnat bozorining shiddatli talablariga moslashtirish jarayonini ilmiy psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bu ikki omilning rivojlanishi — bitiruvchining ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziev, E. G‘. (2007). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.

2. To‘rayev, H. R. (2018). Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari. Monografiya. Toshkent: Fan.

3. Ziyodova, S. I. (2020). Talabalarda kasbiy istiqbolni shakllantirishning psixologik mexanizmlari. Zamonaviy ta'lim / Sovremennoe obrazovanie, (1), 45-51. 4. Turg‘unov, J. (2015). Shaxsning kasbga yo‘nalganligini diagnostika qilish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.

5. Holland, J. L. (1997). Making vocational choices: A theory of vocational personalities and work environments (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources. (Kasbiy mutanosiblikning fundamental nazariyasi – Turlarni Modeli, RIASCE konsepti).

6. Super, D. E. (1980). A life-span, life-space approach to career development. Journal of Vocational Behavior, 16(3), 282-298. Karyerani rivojlantirishning yoshga bog‘liq nazariyasi va o‘z-o‘zini anglash konsepsiyasi.

7. Pryajnikov, N. S. (2008). Professionalnoe samoopredelenie: teoriya i praktika. Moskva: Akademiya. (Kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy istiqbolni shakllantirish bo‘yicha Rossiya maktabining nazariy va amaliy yondashuvlari).